“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Sun’iy idrokning siyosatshunoslik va diplomatiyadagi xatar va imkoniyatlari: AQSh tajribasi

Zabixulla Saipov,
siyosatshunos
siyosiy fanlar nomzodi (PhD)
e-mail: zsaipov@protonmail.com

Аннотация. Sun’iy idrok (SI) siyosatshunoslik va diplomatiyada inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqola AQSh misolida SI ning siyosiy-diplomatik jarayonlarga ta’siri, imkoniyatlari hamda chaqiriqlari tahlil etiladi. SI siyosiy qaror qabul qilish, geosiyosiy bashorat qilish va diplomatik muzokaralarni olib borishda yangi imkoniyatlarni yaratadi, biroq algoritmik tarafkashlik, shaffoflik tanqisligi, mintaqalar orasidagi texnologik tafovutlar hamda kiberxavfsizlik kabi dolzarb muammolarga duch kelishi mumkinligi atroflicha bayon etilgan.

Калит сўзлар. sun’iy idrok, AQSh, siyosatshunoslik, diplomatiya, kiberxavfsizlik, geosiyosat, saylovlar

Аннотация. Искусственный интеллект (ИИ) способствует революционным изменениям в политологии и дипломатии. В данной статье на примере США анализируются влияние ИИ на политико-дипломатические процессы, его возможности и вызовы. ИИ открывает новые перспективы в политическом принятии решений, геополитическом прогнозировании и ведении дипломатических переговоров, однако сталкивается с такими актуальными проблемами, как алгоритмическая предвзятость, недостаток прозрачности, технологические разрывы между регионами и кибербезопасность. Эти аспекты подробно рассмотрены в исследовании.

Ключевые слова. искусственный интеллект, США, политология, дипломатия, кибербезопасность, геополитика, выборы.

Annotation. Artificial intelligence (AI) is driving revolutionary transformations in political science and diplomacy. This article analyzes the impact, opportunities, and challenges of AI in political and diplomatic processes, using the United States as a case study. AI introduces new possibilities for political decision-making, geopolitical forecasting, and diplomatic negotiations; however, it also faces critical issues such as algorithmic bias, lack of transparency, technological disparities across regions, and cybersecurity threats. These dimensions are examined in detail

throughout the study.

Keywords. artificial intelligence, United States, political science, diplomacy, cybersecurity, geopolitics, elections.

Bugungi global siyosatshunoslik va diplomatiya murakkab, o‘zgaruvchan va raqamlashtirilgan muhitda shakllanmoqda. sun’iy idrok bu jarayonlarni tubdan o‘zgartirayotgan markaziy kuchga tobora aylanib bormoqda. SI texnologiyalari nafaqat davlat ahamiyatiga molik qarorlarini qabul qilishni tezlashtirish va xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashadi, balki global diplomatik munosabatlarda yangi strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda. “Sun’iy intellekt diplomatlarga geosiyosiy dinamikani yaxshiroq tushunishga, hamkorlik imkoniyatlarini aniqlashga va mojarolarni samaraliroq hal etishga yordam beradi” (Endara, 2024).

SIning siyosatshunoslikdagi imkoniyatlari. SI siyosiy jarayonlarni bashoratlash, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. “Sun’iy idrok xalqaro munosabatlar va diplomatiyani tubdan o‘zgartirmoqda, ma’lumotlarga asoslangan tahlillar orqali geosiyosiy tahdid va imkoniyatlarni oldindan ko‘rish imkonini beradi” (Tech Diplomacy, 2025).

Diplomatiyada SIning o‘rni. Diplomatlar SI vositalari yordamida katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish, siyosiy nutqlarni sintez qilish, hamda til to‘siqlarini yengish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. “SI vositalari katta hajmdagi matnlarni tahlil qilib, tendensiyalarni aniqlash, huquqiy tahlillarni qo‘llab-quvvatlash va til to‘siqlarini yengishda yordam beradi” (DiploFoundation, 2023). AQSh amalga oshirayotgan diplomatik muzokaralarda SI yordamida ma’lumotlar tez tahlil qilinib, qarorlar qabul qilish jarayoni takomillashtirilmoqda (Endara, 2024).

AQShdagi SI va diplomatiya. Sun’iy idrok Amerika Qo‘shma Shtatlari siyosati va diplomatiyasiga, ayniqsa siyosiy kampaniyalar va diplomatik jarayonlarda katta ta’sirini o‘tkazmoqda. AQShda SI siyosatshunoslik va diplomatiyaga keng tatbiq etilgan. Qator departamentlar SI yordamida katta hajmdagi ilmiy va siyosiy ma’lumotlarni tahlil qilib, qaror qabul qilishni yanada samarali qilmoqda. Qator olimlarning fikrlariga ko‘ra, sun’iy intellekt diplomatik samaradorlikni oshiradi. AQSh diplomatlari SI yordamida murakkab xalqaro vaziyatlarda global tahdidlarni oldindan aniqlash va strategiyalar ishlab chiqishda ko‘mak olishmoqda. AQShda siyosiy kampaniyalarda SI tizimlari siyosiy tendensiyalarni aniqlashda, jamoatchilik fikrini o‘rganishda keng qo‘llanmoqda (Tretter, 2025).

Masalan, 2020-yilgi AQSh prezidentlik kampaniyalarida sun’iy idrok asosidagi chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyasi saylovchilarni psixografik profillarga bo‘lishda keng qo‘llandi. Ular ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, onlayn xatti-harakatlari va boshqa ma’lumotlarga asoslanib, saylovchilarning qiziqishlari va hissiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

javoblari aniqlangan. Natijada, kampaniyalar minglab turli xil video reklamalar, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlar postlarini shaxsiylashtirishga muvaffaq bo‘ldi, bu esa saylovchilarning faolligi va ovoz berishga ishtiyoqini 20-30% ga oshirdi. (Beckouche, 2024).

2024-yil saylovlarida SI tomonidan yaratilgan “deepfake” audiolar va ovoz klonlari noto‘g‘ri ma’lumot tarqatishda ishlatilishi kuzatildi. Masalan, nomzodlar nomidan sun’iy idrok yordamida yaratilgan qo‘ng‘iroqlar demokratlarni ovoz berishdan to‘xtatish uchun tarqatilgan. Bu kabi taktikalarning saylovchilarning fikrini noto‘g'ri yo‘naltirishda samarali ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Siyosatchilar ham SI chatbotlarini o‘z kampaniyalarida ishlatishni boshlaganlari kuzatildi. Nomzodlar o‘zlarining virtual chatbotlarini yaratib, saylovchilarga interfaol ravishda murojaatlar qilganlar. AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, SI siyosatshunoslik va diplomatiyada qo‘llanilishi yangi imkoniyatlarni ochib beradi va shu bilan birga yangi xavf va muammolarni ham yuzaga chiqaradi. SI ning siyosiy tahlil va diplomatiyadagi amaliy ta’siri, shuningdek, diplomatlardan yangi kasbiy mahoratlarni egallashni taqozo etadi.

Sun’iy idrok Amerika Qo‘shma Shtatlari siyosati va diplomatiyasiga katta va ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun'iy idrok siyosiy kampaniyalarni olib borishda tezkor ma’lumotlarni tahlil qilish, maqsadli reklama va avtomatlashtirilgan kontent yaratish imkonini beradi, bu esa xabarlarni kuchaytirish va saylovchilarni samaraliroq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, u nomzodlar uchun siyosiy ishtirokni demokratlashtiradi va fuqarolarni siyosiy jarayonlarga qo‘shilishni osonlashtiradi, masalan, millionlab odamlar saylanadiganlarga xatlar yozishda yordamchi vositalar sifatida foydalanmoqda. Biroq, sun’iy idrok nazoratsiz qo‘llanilganda, kuzatuv, noto‘g‘ri ma’lumot va siyosiy nutqni manipulyatsiya qilish xavflarini ham oshiradi. Diplomatiyada esa SI murakkab qarorlarni qabul qilish, xalqaro muzokaralarni qo‘llab-quvvatlash va siyosatni rejalashtirish imkoniyatlarini yaxshilaydi, bu esa AQShning strategik salohiyatini oshiradi. 2025-yilda AQSh ma’muriyati SI innovatsiyalarini ilgari surish, infratuzilmani rivojlantirish va SI sohasida xalqaro yetakchilik qilishni o‘zining uzoq muddatli strategik maqsadlariga kiritdi. SI ning asosiy ta’sirlari:

SI yordamida saylov kampaniyalarida ko‘plab reklama shakllari va strategiyalarini maqsadli tarzda yaratish.

Jamoatchilik fikrini va qonunchilik tashabbuslarini voqea sodir bo‘layotgan onlarda bir zumda tahlil etish.

Saylovlarga aralashish, soxta ma’lumotlarning urchishi xavflari.

SI yordamida siyosiy muzokaralar va xalqaro xavfsizlikni boshqarish.

SI bo‘yicha aniq tartibga solish chora-tadbirlarining hamon mavjud emasligi siyosiy jarayonlarga noaniqlik keltirib chiqaradi.

Umuman olganda sun’iy idrok AQSh siyosatini yanada samarali, tezkor va raqobatbardosh qiladi, ammo etik va boshqaruv masalalarini ham keltirib chiqaradi. Diplomatiyada esa SI murakkab

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

xalqaro muzokaralar va strategik rejalashtirishda hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni oz fursatlarda tezda tahlil va tasnif etishda qo‘l keladi. Qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri SI texnologiyalari, asosan, qarorlarni asoslashda va istiqbolli siyosat strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, saylov kampaniyalarida, ijtimoiy muhitni o‘rganish va shaxsiy namunalarni tahlil qilish orqali, siyosiy liderlar hamda davlat organlari muayyan harakatlar strategiyasini ishlab chiqadi.

SI yuzaga keltirayotgan chaqiriq va xatarlar. SI siyosatshunoslik, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarda yangi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Asosiy muammolardan biri – algoritmik tarafkashlik, ya’ni SI tizimlarining ma’lumotlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy stereotiplarga asoslanib noto‘g‘ri yoki tengsiz va adolatsiz qarorlar chiqarishga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ma’lumotlarning maxfiyligi va shaxsiy hayotga daxl qilinish – SI asosidagi tizimlarda katta xavf sifatida ko‘riladi. Katta hajmdagi shaxsiy va siyosiy ma’lumotlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki xavfsizlikni ta’minlashdagi zaif nosozliklar siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi ham tabiiy.

Texnik muammolar, jumladan algoritmlarning tushunarsizligi va murakkabligi, shuningdek, tizimlarning o‘z-o‘zini takomillashtirish imkoniyati nazoratning yo‘qolishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Bu esa siyosiy jarayonlarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu muammolar asosida siyosiy xavfsizlikning yangi shakllari, masalan, sun’iy intellekt yordamida amalga oshiriladigan kiberhujumlar va axborotni manipulyatsiya qilish xavf-xatarlari paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun siyosatshunoslikda SI ning etik va huquqiy me’yorlari yaratish va amal qilish juda muhimdir.

Shaxsiy hayotning himoyasi, algoritmik adolat va inson nazoratining saqlanishi siyosiy tizimlarda ishonchni ta’minlash uchun markaziy masaladir. Shu sababli, ilmiy va huquqiy hamjamiyatlar SI ni tartibga solish uchun bir qatorda global standartlar ishlab chiqishga intilmoqda. Sun’iy intellektni siyosiy qarorlar qabul qilishda aniqlik va samaradorlikni oshirish uchun oqilona strategiyalar ishlab chiqilishi talab etiladi. Barcha jarayonlarda shaffoflikni ta’minlash, algoritmlarning shaffofligini oshirish hamda inson nazoratini saqlab qolish shart. Malakali kadrlar va texnologik infratuzilmaning yetishmasligi ayrim mamlakatlarda SI ni to‘liq joriy etishga to‘siq bo‘ladi. Bu esa kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalasini kun tartibiga olib chiqadi. “SI bilan bog‘liq kiberxavfsizlik tahdidlari xalqaro hamkorlikni taqozo etmoqda”. (Abbakumova, 2025).

SI integratsiyasi bilan bog‘liq eng asosiy muammo – algoritmik tarafkashlik va tizimlarning shaffof emasligi. “Shaffoflik tanqisligi va algoritmik tarafkashlik ishonchsizlikni kuchaytirib, diplomatik samaradorlikni pasaytiradi” (Endara, 2024). Kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlar ham o‘sib bormoqda: “SI texnologiyalari yangi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

kiberxavfsizlik tahlikalarini keltirib chiqarib, diplomatik aloqalarni murakkablashtiradi va xalqaro hamkorlikni talab qiladi” (Abbakumova, 2025). Markaziy Osiyo davlatlari texnologik yetishmovchilik sababli bu sohada orqada qolish xavfi ostida turibdi (Konovalova, 2023).

Ayrim tavsiyalar. SI borasidagi me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish. SI sohasida yangi qonun va me’yorlarni ishlab chiqish, xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Maxfiylikni himoya qilish va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish davlat organlari va qonunchilik tomonidan muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Axloqiy me’yorlar va inson manfaatlari. Sun’iy intellektning etik qoidalari – odillik, shaffoflik, hisobdorlik va insonning barcha huquq va erkinliklarini himoya qilish tamoyillaridan iborat bo‘lib, ularning amaliyotga joriy qilinishi demokratik jarayonlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Texnologik yechimlar va monitoring. Tizimlar va algoritmlar ustidan yangilangan monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish, SI model chiqishlarining adolatli va neytral ekanini doimiy baholab borish muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, siyosiy qarorlarning obyektivligini ta’minlash uchun zarur. Raqamli savodxonlik va fuqarolarni jalb qilish. Fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, SI tizimlarining shaffofligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish siyosiy jarayonlarda kengroq ishtirokni ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa va istiqbollar. Sun’iy intellektdan oqilona foydalanish siyosiy tizimlarni samaraliroq, demokratik va xavfsiz qilishga yordam beradi. Kelajakda global standartlar asosida mintaqaviy siyosiy va huquqiy mexanizmlar rivojlanishi, kelisha olish va hamkorlik yanada kuchayishi kutilmoqda. Birlamchi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt siyosatshunoslik fanida innovatsion metodlarni joriy etishda va siyosiy jarayonlarni chuqurroq tahlil qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. SI yordamida siyosiy qarorlarni aniqlik bilan qabul qilish, saylov jarayonlarini shaffoflashtirish va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish imkoniyatlari sezilarli darajada yuksaltiradi. Kelajakda SI siyosatshunoslik sohasida raqamli savodxonlikni oshirish, sun’iy intellekt tizimlarini shaffoflashtirish va inson nazoratini saqlashga yo‘naltirilgan strategiyalar asosida yanada samaraliroq qo‘llaniladi. Bu esa demokratik jamiyatlarda siyosiy jarayonlarni yanada adolatli va xavfsiz qiladi.

Sun’iy intellekt siyosatshunoslikni yangi bosqichga olib chiqish uchun katta imkoniyatlar ochmoqda, ammo undan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish zarur. Shu bilan birga, ilmiy va siyosiy hamjamiyatlar o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirilib, texnologik taraqqiyotning ijtimoiy natijalari doimiy ravishda baholanib borilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. SI va diplomatlarning kelajagi. SI diplomatlarning o‘rnini emas, balki ularning ish qobiliyatlarini oshiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. “Diplomatiya sun’iy intellekt tomonidan almashtirilmaydi; SI diplomatlarning imkoniyatlarini

oshiradi” (Endara, 2024). Bu yangi malakalar va qo‘shimcha hamkorlik usullarini talab qiladi, diplomatlarning globallashgan siyosiy maydonda yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Demak, SI siyosatshunoslik va diplomatiyada yangi imkoniyatlarni yaratmoqda, qaror qabul qilishni ilmiy asoslash, global xavflarni bashorat qilish va diplomatik jarayonlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari tajribalari SI ni diplomatlar uchun kuchli yordamchi vosita ekanini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, algoritmik tarafkashlik, shaffoflikning yetishmasligi, kiberxavfsizlik tahdidlari va texnologik tafovutlar kabi muammolar hal etilsa, SI siyosiy va diplomatik jarayonlarda yanada samarali qo‘llanilish ufqlarini ochadi. Xalqaro tashkilotlar SI ning etik va xavfsizlik me’yorlarini ishlab chiqishni boshqaradi. Xalqaro hamkorlik SI uchun normativ va standartlar yaratishda muhim hisoblanadi. Bu normativlar SI ning adolatli va xavfsiz qo‘llanilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Abbakumova Daryna. Diplomatic Relations, Artificial Intelligence and Cyber Threats. Global Challenges. May 2025.

Beckouche Pierre. Artificial intelligence is leading US towards a new bipolar geopolitical order. October 2025

DiploFoundation. AI Diplomacy: Geo-politics, Topics and Tools in 2025. 2023.

Endara Clarems. AI and Diplomacy: International relations in the age of disruptive technologies. September 2024

Konovalova Marta. AI and diplomacy: challenges and opportunities. July 2023.

Lindsay James. The Deepfake Threat to the 2024 Election. February, 2024.

Tretter Max. Opportunities and challenges of AI-systems in political decision-making. Frontiers in Political Science. March 2025.

WebOsmotic Team. AI in Political Campaigns: AI and Its Impact on Future Elections. March 11, 2025